**O'zbekiston Republikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi 2026-yil uchun tasdiqlangan budjet dasturlari va maqsadli indikatorlarining 2026-yil II-chorakdagi ijrosini ichki audit baholash nazorat tadbiri bo'yicha**

# MA'LUMOTNOMA

| | |
|---|---|
| **Baholash obyekti nomi** | O'zbekiston Republikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi. |
| **Baholash nazorat tadbirini o'tkazish bo'yicha mutaxassis** | O'zbekiston Republikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi Ichki audit xizmati bosh mutaxassisi J.Omanov. |
| **Tuzilgan sana** | 2026-yil 17-iyul |
| **Qo'llaniladigan qisqartmalar** | O'zbekiston Republikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi **-Qo'mita** deb yuritiladi. |

## 1. Audit baholash nazorat tadbirini o'tkazish asoslari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 dekabrdagi PQ–388-son qarori 6-ilovasiga muvofiq belgilangan rivojlantirish dasturlari, budjet xarajatlari hamda maqsadli indikatorlarning 2026-yil II-chorakdagi ijrosini o'rganish maqsadida, Din ishlari bo'yicha qo'mita raisining 2026-yil 13-iyuldagi 74-A-son buyrug'iga asosan audit nazorat tadbiri o'tkazildi.

Audit nazorat tadbirida Qo'mita markaziy apparati, tizim tashkiloti hamda diniy-ma'rifiy soha tashkilotlari bo'yicha:

1. Tasdiqlangan va aniqlashtirilgan budjet xarajatlar rejalari;
2. 2026-yil II-chorak uchun belgilangan reja va uning ijrosi;
3. Budjet xarajatlarining guruhlar kesimidagi holati;
4. Rivojlantirish dasturlari va maqsadli indikatorlarning bajarilishi;
5. Hisobot ma'lumotlarining o'zaro muvofiqligi va ishonchliligi o'rganildi.

Budjet xarajatlari hamda maqsadli indikatorlarning 2026-yil II-chorakdagi ijrosini o'rganish Qo'mitaning Moliya-iqtisod bo'limi tomonidan taqdim etilgan xujjatlar, moliyaviy hisobotlar asosida mablag'larning maqsadli sarflanishi yuzasidan tanlama tartibida o'tkazildi.

Baholash tadbiri davomida taqdim qilingan xujjatlarning asosligiga Qo'mitaning Moliya-iqtisod bo'limi javobgardir.

## 2. Budjet mablag'lari rejasi va ijrosining tahlili

### 2.1. Reja ko'rsatgichlari bo'yicha:

Din ishlari bo'yicha qo'mita hisobot ko'rsatgichlari bo'yicha davlat budjetidan ajratilgan mablag'larning 2026-yilning 2-choragida **172 657,9 mln so'm** mablag' tasdiqlangan bo'lib, kititilgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda aniqlangan rejaviy ko'rsatgich **662 766,3 mln so'mni** tashkil qilgan. Jumladan:

**1.** Qo'mita markaziy apparati 2026-yil 2-chorak xarajatlar smetasi **48 280,4 mln so'mga** tasdiqlangan bo'lib, shundan:

I-guruh xarajatlari (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar)-**36 683,0** mln so'm;

II-guruh xarajatlari (yagona ijtimoiy to'lov) - **9 191,7 mln so'm;**

IV-guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) - **2 405,7 mln so'm.**

**2.** Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Diniy-marifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti 2026-yil 2-chorak xarajatlar smetasi **7 456,7 mln so'mga** tasdiqlangan bo'lib, shundan:

I-guruh xarajatlari (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar) - **5 325,9** mln so'm;

II -guruh xarajatlari (yagona ijtimoiy to'lov) - **1 337,7 mln so'm;**

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) - **793,1 mln so'm.**

**3.** Imom Motrudiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi 2026-yil 2-chorak xarajatlar smetasi **12 513,9 mln so'mga** tasdiqlangan bo'lib, shundan:

I-guruh xarajatlari (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar) - **8 588,9** mln so'm;

II -guruh xarajatlari (yagona ijtimoiy to'lov) - **2 147,2 mln so'm;**

IV-guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) **-1 777,8 mln so'm.**

**4.** Ziyo media markazi 2026-yil 2-chorak xarajatlar smetasi - **6 567,8 mln so'mga** tasdiqlangan bo'lib, shundan:

I-guruh xarajatlari (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar) - **4 094,6** mln so'm;

II -guruh xarajatlari (yagona ijtimoiy to'lov) **-1026,2 mln so'm;**

IV-guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) **-1 447,0 mln so'm.**

**5.** O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 2026-yil 2-chorak xarajatlar smetasi **105 288,5 mln so'm**ga tasdiqlangan bo'lib, shundan:

I-guruh xarajatlari (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar) - **63 439,5** mln so'm;

II -guruh xarajatlari (yagona ijtimoiy to'lov) **-14 126,6 mln so'm;**

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) **-27 722,4 mln so'm.**

5.1. O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi(a'zolik badali) 2026-yil 2-choragida xarajatlar smetasi **1 823,5 mln so'mga** tasdiqlangan bo'lib, shundan:

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) **–1 823,5 mln so'm.**

5.2. O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi(subsidya) 2026-yil 2-chorak xarajatlar smetasi **1 213,4 mln so'mga** tasdiqlangan bo'lib, shundan:

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) - **1 213,4** mln so'm.

**6.** O'zbekiston Musilmonlari idorasi (a'zolik badali) 2026-yil 2-chorak xarajatlar smetasi **1 901,7 mln so'mga** tasdiqlangan bo'lib, shundan:

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) - **1 901,7 mln so'm.**

**7.** Vaqf xayriya jamoat fondi (a'zolik badali) 2026-yil 2-chorak xarajatlar smetasi **579,2 mln so'mga** tasdiqlangan bo'lib, shundan:

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) - **579,2 mln so'm.**

7.1.Vaqf xayriya jamoat fondi 2026-yil 2-choragida xarajatlar smetasi **25 624,7** mln so'mga tasdiqlangan bo'lib, shundan:

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) – **25 624,7** mln so'm.

7.2.Vaqf xayriya jamoat fondi 2026-yil 2-choragida xarajatlar smetasi **450 000,0** mln so'mga tasdiqlangan bo'lib, shundan:

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) - **450 000,0** mln so'm.

**8.** Islom sivilizatsiya markazi (a'zolik badali) 2026-yil 2-chorak xarajatlar smetasi **1 516,5 mln so'mga** tasdiqlangan bo'lib, shundan:

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) - **1 516,5 mln so'mni** tashkil qilgan.

**2.2. Bajarilishi:**

2026-yilning 2-choragida diniy-ma'rifiy soha muassasalarini rivojlantirish uchun amalga oshirilgan jami kassa xarajatlari **586 099,6 mln** so'mni tashkil etgan bo'lib, yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan **87, 4 foizga** bajarilgan. Jumladan:

**1.** Qo'mita markaziy apparati 2026-yil 2-chorak kassa xarajatlari **23 517,6 mln so'm**ga amalga oshirilgan bo'lib, shundan:

I-guruh xarajatlari (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar)- **18 181,2** mln so'm;

II-guruh xarajatlari (yagona ijtimoiy to'lov) – **4 325,0 mln so'm;**

IV-guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) – **10 11,4 mln so'm.**

**2.** Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Diniy-marifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti 2026-yil 2-chorak kassa xarajatlari **3 830,0 mln so'mga** amalga oshirilgan bo'lib, shundan:

I-guruh xarajatlari (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar) - **2 956,5**mln so'm;

II -guruh xarajatlari (yagona ijtimoiy to'lov) – **723,7 mln so'm;**

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) – **149,7 mln so'm.**

**3.** Imom Motrudiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi 2026-yil 2-chorak kassa xarajatlari **5 747,2 mln so'mga** amalga oshirilgan bo'lib, shundan:

I-guruh xarajatlari (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar) - **4 224,2** mln so'm;

II -guruh xarajatlari (yagona ijtimoiy to'lov) - **1 055,8 mln so'm;**

IV-guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) - **467,2 mln so'm.**

**4.** Ziyo media markazi 2026-yil 2-chorak kassa xarajatlar **3 224,6 mln so'mga** amalga oshirilgan bo'lib, shundan:

I-guruh xarajatlari (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar)- **2 040,6** mln so'm;

II -guruh xarajatlari (yagona ijtimoiy to'lov) - **506,3 mln so'm;**

IV-guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) - 677,7 mln so'm.

**5.** O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 2026-yil 2-chorak kassa xarajatlari **61 153,4 mln so'mga** amalga oshirilgan bo'lib, shundan:

I-guruh xarajatlari (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar) - **30 378,1** mln so'm;

II -guruh xarajatlari (yagona ijtimoiy to'lov) - **6 736,6 mln so'm;**

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) -**24 038,7 mln so'm.**

5.1. O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 2026-yil 2-chorak kassa xarajatlari **1 685,1 mln so'mga** amalga oshirilgan bo'lib, shundan:

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) - **1 685,1 mln so'm.**

5.2. O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 2026-yil 2-chorak kassa xarajatlari **1 213,4 mln so'mga** amalga oshirilgan bo'lib, shundan:

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) –1 213,4 mln so'm.

**6.** O'zbekiston musulmonlari idorasi(a'zolik badali) 2026-yil 2-chorak kassa xarajatlari **1 736,9 mln so'mga** amalga oshirilgan bo'lib, shundan:

IV-guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) - **1 736,9 mln so'mni** tashkil qilgan.

**7.** Vaqf xayriya jamoat fondi 2026-yil 2-chorak kassa xarajatlari **153,0 mln so'mga** amalga oshirilgan bo'lib, shundan:

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) - **153,0 mln so'm.**

7.1. Vaqf xayriya jamoat fondi 2026-yil 2-chorak kassa xarajatlari **25 624,7 mln so'mga** amalga oshirilgan bo'lib, shundan:

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) - **24 886,7** mln so'm.

7.2. Vaqf xayriya jamoat fondi 2026-yil 2-chorak kassa xarajatlari **449 990,5 mln so'mga** amalga oshirilgan bo'lib, shundan:

IV -guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) - **450 000,0** mln so'm.

**8.** Islom sivilizatsiya markazi (a'zolik badali) 2026-yil 2-chorak kassa xarajatlari **1 284,7 mln so'mga** amalga oshirilgan bo'lib, shundan:

IV-guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) - **1 284,7 mln so'mni** tashkil qilgan.

Ajratilgan mablag'lar hisobiga "Diniy-ma'rifiy sohani yanada takomillashtirish, jamiyatda "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida dinning insonparvarlik, ezgulik va tinchlik kabi fazilatlarini hamda bag'rikenglik ruhini keng targ'ib qilish, shuningdek, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va qonun ustuvorligini ta'minlash" bo'yicha Strategik maqsad bajarilishi natijasida **1 ta yakuniy natija ko'rsatgichi"ni** hamda **17ta "Bevosita(to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatgichi"ni** yaxshilash ko'zda tutilgan.

### 3. Erishilgan natija ko'rsatgichlari tahlili

Qo'mitaning 2026-yilgi **Strategik maqsadi:** diniy-ma'rifiy sohani yanada takomillashtirish, jamiyatda «Jaholatga qarshi ma'rifat» degan ulug'vor g'oya asosida dinning insonparvarlik, ezgulik va tinchlik kabi fazilatlarini hamda diniy bag'rikenglik ruhini keng targ'ib qilish, shuningdek, ijtimoiy-ma'naviy muhit

barqarorligi va qonun ustuvorligini ta'minlashdan iboratligi belgilangan bo'lib taqdim etilgan hisobot ko'rsatgichlarida jami **1 ta yakuniy va 17 ta bevosita natija ko'rsatkichi** nazarda tutilgan.

Ularning **13 tasi** 2026-yilning 1-yarim yilligida belgilangan rejadan ortiq, **5 tasi** 100 foiz bajarilgan va rejadan kam bajarilgan maqsadli indikator ko'rsatgichlari mavjud emasligi aniqlandi. Jumladan:

***Haj va Umra safariga boruvchilarga qulay shart-sharoit yaratish va ularning ziyoratlarini tashkil etish*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 32 550 nafar etib belgilangan bo'lib, amalda 35 400 nafarni tashkil etdi, ya'ni reja 109 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 54,3 foizni tashkil qilgan.*

***Respublikadagi muqaddas qadamjo va ziyoratgoh obyektlari haqida ma'lumot beruvchi nashrlarni chop etish*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 7 dona etib belgilangan bo'lib, amalda 8 dona nashr chop etildi, ya'ni reja 114 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 53,3 foizni tashkil qilgan.*

***Diniy mazmundagi materiallar yuzasidan dinshunoslik ekspertizasi xulosalarini tayyorlash*** *bo'yicha 2026 yilning I yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 3 990 ta etib belgilangan bo'lib, amalda 5 478 ta xulosa tayyorlandi, ya'ni reja 137 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 68,6 foizni tashkil qilgan.*

***O'zbekiston va xorijiy davlatlardagi diniy-ijtimoiy jarayonlar bo'yicha axborot-tahliliy ma'lumotnomalar tayyorlash*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 47 ta etib belgilangan bo'lib, amalda 47 ta ma'lumotnoma tayyorlandi, ya'ni reja 100 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 49,5 foizni tashkil qilgan.*

***O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash hamda aholida terrorizm va ekstremizmga qarshi barqaror immunitetni shakllantirishga qaratilgan diniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 33 075 ta etib belgilangan bo'lib, amalda 33 210 ta tadbir o'tkazildi, ya'ni reja 100 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 50,2 foizni tashkil qilgan.*

***Internet tarmog'ida din omili bilan bog'liq mavzulardagi chiqishlar yuzasidan tahliliy ma'lumotlar tayyorlash*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 137 ta etib belgilangan bo'lib, amalda 155 ta tahliliy ma'lumot tayyorlandi, ya'ni reja 113 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 56,8 foizni tashkil qilgan.*

***Diniy soha xodimlarining internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali dolzarb mavzulardagi targ'ibot chiqishlarini tashkil etish*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 5 250 ta etib belgilangan bo'lib, amalda 6 875 ta targ'ibot chiqishi tashkil etildi, ya'ni reja 131 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 65,5 foizni tashkil qilgan.*

***Internet va ijtimoiy tarmoqlarda radikal shaxslar tomonidan uyushtiriladigan chiqishlarga qarshi tezkor, ilmiy asoslangan aksiltarg'ibot tadbirlarini tashkil etish*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 3 150 ta etib belgilangan bo'lib, amalda 3 579 ta tadbir tashkil etildi, ya'ni reja 114 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 56,8 foizni tashkil qilgan.*

***Diniy-ma'rifiy soha hamda davlat va jamoat tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 1 100 nafar etib belgilangan bo'lib, amalda 3 667 nafar xodimning malakasi oshirildi, ya'ni reja 333 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 218,3 foizni tashkil qilgan.*

***Diniy tashkilotlarni, jumladan, masjidlar va diniy ta'lim muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash jarayonini muvofiqlashtirish*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 158 nafar etib belgilangan bo'lib, amalda 186 nafarni tashkil etdi, ya'ni reja 118 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 59 foizni tashkil qilgan.*

***Diniy soha xodimlari ishtirokida "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi ostida jamiyat uchun dolzarb mavzular hamda ijtimoiy illatlarning oldini olishga yo'naltirilgan ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 29 000 ta etib belgilangan bo'lib, amalda 30 482 ta tadbir o'tkazildi, ya'ni reja 105 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 52,8 foizni tashkil qilgan.*

***Diniy o'quv yurtlari qoshidagi Qur'on o'qish kurslarida fuqarolarning ta'lim olishini tashkil etish*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 7 500 nafar etib belgilangan bo'lib, amalda 8 000 nafar fuqaroning ta'lim olishi tashkil etildi, ya'ni reja 107 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 54,4 foizni tashkil qilgan.*

***O'zbekiston vakillarining mamlakatimizda va xorijda o'tkaziladigan diniy sohaga oid xalqaro tadbirlarda ishtirokini ta'minlash*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 50 nafar etib belgilangan bo'lib, amalda 50 nafar vakilning ishtiroki ta'minlandi, ya'ni reja 100 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 52,6 foizni tashkil qilgan.*

***Xotin-qizlarning turli ma'naviy tahdid va ta'sirlarga tushib qolishining oldini olish, ularda qat'iy e'tiqod va mafkuraviy immunitetni shakllantirishga yo'naltirilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 1 365 ta etib belgilangan bo'lib, amalda 1 380 ta tadbir o'tkazildi, ya'ni reja 101 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 50,5 foizni tashkil qilgan.*

***Davlat va nodavlat teleradiokanallar, gazeta va jurnallar hamda internet tarmog'i orqali diniy-ma'rifiy sohaga doir chiqishlarni amalga oshirish*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 11 dona etib belgilangan bo'lib, amalda 11 dona chiqish amalga oshirildi, ya'ni reja 100 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 52,4 foizni tashkil qilgan.*

***Diniy-ma'rifiy sohada o'tkaziladigan tadbirlar to'g'risidagi xabarlar, yangiliklar va infografikalarni sayt hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilib borish*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 22 dona etib belgilangan bo'lib, amalda 22 dona material e'lon qilindi, ya'ni reja 100 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 52,4 foizni tashkil qilgan.*

***Noislomiy diniy tashkilotlar rahbarlari ishtirokida diniy bag'rikenglik ruhini keng targ'ib qilishga qaratilgan diniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish*** *bo'yicha 2026-yilning I-yarim yilligi uchun reja ko'rsatkichi 3 ta etib belgilangan bo'lib, amalda 3 ta tadbir o'tkazildi, ya'ni reja 100 foizga bajarilgan. Belgilangan yillik rejaviy ko'rsatgichga nisbatan 50 foizni tashkil etgan.*

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, barcha yo'nalishlarda ijro intizomi saqlangan, rejalashtirilgan ishlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda hamda ko'rsatkichlar choraklik me'yorlarga mos ravishda bajarilmoqda. Ayrim yo'nalishlarda reja ijrosining biroz yuqori darajada bajarilgani ijobiy dinamikani ifodalaydi.

## 4. Audit nazorat tadbiri bo'yicha xulosa

Taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, Din ishlari bo'yicha qo'mita tizimida 2026-yil II-chorak uchun belgilangan budjet xarajatlari rejasi **87,4 foizga** bajarilgan.

Bundan tashqari maqsadli indikatorlarning barchasi formal jihatdan 2026-yil 1-yarim yillik rejaviy ko'rsatgichiga nisbatan 100 foiz va undan yuqori darajada bajarilgan.

Shu bilan birga, ayrim tashkilotlarda budjet mablag'larining o'zlashtirilishi past darajada qolgan. Xususan:

- Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Diniy-marifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti bo'yicha mablag'larni o'zlashtirish **61,4 foizni** tashkil etgan;

- «Vaqf» xayriya jamoat fondi bo'yicha ayrim mablag'larni o'zlashtirish **26,4 foizni** tashkil etgan.

Umuman olganda, hisobot davri yakunlariga ko'ra diniy sohadagi reja ko'rsatkichlarining ijrosi qoniqarli deb baholanadi hamda belgilangan vazifalar ijrosi tizimli ravishda davom ettirilmoqda. Shunga ko'ra, qo'mita tomonidan taqdm etilgan maqsadli indikator ko'rsatkichlari hisoboti **579 161,1 mln** so'm mablag'lar doirasida shakllantirilgan.

Audit tadbiri natijalari bo'yicha maqsadli indikatorlar ijrosini yanada tizimlashtirish, byudjet mablag'lari samaradorligini natija ko'rsatkichlari bilan bog'lash hamda ayrim raqamli ko'rsatkichlarga aniqlik kiritish zarurligi qayd etildi.

## 5. Taklif va tavsiyalar

Kelgusi davrlarda bajarilish hajmini yil davomida mutanosib taqsimlash, tadbirlar sifatini oshirish, ularning manzilliligini kuchaytirish, byudjet mablag‘lari samaradorligini natija ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash hamda monitoring va tahlil tizimini yanada takomillashtirish;

Qo‘mita huzuridagi Diniy-marifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti, «Vaqf» xayriya jamoat fondi hamda boshqa rejasi to‘liq bajarilmagan tashkilotlar bo‘yicha mablag‘larni o‘zlashtirmaslik sabablarini tahlil qilish;

O‘zlashtirilmagan mablag‘lar bo‘yicha aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, mas’ul ijrochilar va bajarish muddatlarini belgilash;

Maqsadli indikatorlar uchun budjetdan ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish, natijalar bo‘yicha iqtisod qilingan mablag‘larni moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo‘naltirilishi **tavsiya etiladi.**

**Ichki audit xizmati**
**bosh mutaxassisi** **J.Omanov**

**Moliya-iqtisod bo‘limi**
**boshlig‘i** **B.Juroyev**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 26 декабрдаги ПҚ-388-сонли қарорининг 6-иловасига асосан ривожлантириш дастурлари ва бюджет харажатларини мақсадли индикаторларининг 2026-йил 1-ярим йиллик ижроси тўғрисида

## ТАХЛИЛИЙ МАЪЛУМОТ

| № | Ривожлантириш дастури ва мақсадли индикаторлар номи | Ўлчов бирлиги | 2026 йил тасдиқланган режа | 2026 йил аниқланган режа | шундан: 2-чорак | | | | Йиллик режага нисбатан фарқ (фоизда) | Изох: |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Режа | ижро | фарқи (-кам, +кўп) | фоизда | | |
| | **I. Ажратилган маблағ кўрсаттичлари** | | | | | | | | | |
| 29. | **Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари бўйича қўмитаси** | млн сўм | 172 657,9 | 662 766,3 | 586 827,6 | 579 161,1 | -7 666,5 | 98,7 | 87,4 | |
| | *Шундан* | | | | | | | | | |
| | Дин ишлари қўмита марказий аппарати | млн сўм | 48 280,4 | 48 280,4 | 24 169,8 | 23 517,6 | -652,2 | 97,3 | 48,7 | |
| | Ўзбекистон Мусилмонлари идораси | млн сўм | 1 901,7 | 1 901,7 | 1 901,7 | 1 737,0 | -164,7 | 91,3 | 91,3 | |
| | Дин ишлари бўйича қўмита ҳузуридаги Диний-марифий соҳада малака ошириш ва қайта тайёрлаш институти | млн сўм | 7 456,7 | 7 456,7 | 6 241,7 | 3 830,0 | -2 411,7 | 61,4 | 51,4 | |
| | Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси | млн сўм | 91 547,8 | 105 288,5 | 63 959,7 | 61 153,4 | -2 806,3 | 95,6 | 58,1 | 21.04.2025 йилдаги №68-сонли ПФнинг 8-банди, 15.08.2022 йилдаги №447-сонли ВМнинг қарори 2-банди ҳамда 19.01.2026 йилдаги Давлат молиявий назорат инспекциясининг 58-сонли буйруғига асосан ўзгартиришлар киритилган |
| | Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси (аъзолик бадали) | млн сўм | 1 823,5 | 1 823,5 | 1 823,5 | 1 685,1 | -138,3 | 92,4 | 92,4 | |
| | Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси (субсидя) | млн сўм | | 1 213,4 | 1 213,4 | 1 213,4 | 0,0 | 100,0 | 100,0 | |
| | Имом Мотрудий Халқаро илмий-тадқиқот маркази | млн сўм | 12 513,9 | 12 513,9 | 6 514,9 | 5 747,2 | -767,7 | 88,2 | 45,9 | |
| | Вақф хайрия жамоат фонди (аъзолик бадали) | млн сўм | 579,2 | 579,2 | 579,2 | 153,0 | -426,3 | 26,4 | 26,4 | |
| | Вақф хайрия жамоат фонди | млн сўм | | 25 624,7 | 25 624,7 | 25 624,7 | 0,0 | 100,0 | 100,0 | Ўзбекистон Республикаси Президенти, Вазирлар Маҳкамаси қарор ва фармойишлари асосида Имом хатиблар, имом ноиблар ҳамда отинойиларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш мақсадида ўзгартиришлар киритилган |
| | Вақф хайрия жамоат фонди | млн сўм | | 450 000,0 | 450 000,0 | 449 990,5 | -9,5 | 100,0 | 100,0 | Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 17 февралдаги ПҚ-67-сонли «Муборак Рамазон ойида эхтиёжманд аҳолини давлат томонидан ижтимоий қўллаб-қувватлаш чоралари тўғрисида»ги қарорига асосан ўзгартиришлар киритилган |
| | Ислом цивилизация маркази (аъзолик бадали IRCICA) | млн сўм | 1 516,5 | 1 516,5 | 1 516,5 | 1 284,7 | -231,9 | 84,7 | 84,7 | |
| | Зиё медиа маркази | млн сўм | 6 567,8 | 6 567,8 | 3 282,6 | 3 224,6 | -58,0 | 98,2 | 49,1 | |
| | Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги (999-захира маблағлари) | млн сўм | 470 | 0 | 0 | 0 | 0 | | | |
| | **II. Эришилган натижа кўрсаттичлари** | | | | | | | | | |
| | *Стратегик мақсад — диний-маърифий соҳани янада такомиллаштириш, жамиятда «Жаҳолатга қарши маърифат» деган улуғвор ғоя асосида диннинг инсонпарварлик, эзгулик ва тинчлик каби фазилатларини ҳамда диний бағрикенглик руҳини кенг тарғиб қилиш, шунингдек, ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлиги ва қонун устуворлигини таъминлаш.* | | | | | | | | | |
| | **Якуний натижа кўрсаткичи** | | | | | | | | | |
| | Диний-маърифий тадбирларда фуқаролар иштироки (жами ижтимоий фаол аҳоли сонига нисбатан) | фоиз | 37 | 37 | 36 | 36,4 | 0,4 | 101 | 98,4 | 2026-yilda diniy-ma'rifiy tadbirlarga 8 mln 798 ming nafar aholini jalb etish, jumladan, II chorakda 4,3 mln nafar fuqaroni qamrab olish belgilangan. Hududlarda davlat va xo'jalik, ta'lim, diniy-ma'rifiy, mahalla, xotin-qizlar, migratsiya va ijtimoiy himoya yo'nalishlarida o'tkazilgan tadbirlarda jami 4,5 mln nafardan ziyod aholi qamrab olindi. Natijada II chorak rejasi 101 foizga bajarildi. |
| | **Бевосита (тўғридан-тўғри) натижа кўрсаткичи** | | | | | | | | | |
| | Хаж ва Умра сафарига борувчиларга қулай шарт-шароит яратиш ва зиёратларини ташкил этиш | нафар | 65100 | 65100 | 32550 | 35400 | 2850 | 109 | 54,4 | Хаж тадбирида 15251 нафар зиёратчи ва 19249 нафар фуқаро учун умра тадбири намунали ва тартибли ташкил этилди |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Республикадаги муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳ объектлари ҳақида маълумот берувчи нашрлар чоп этиш | дона | 15 | 15 | 7 | 8 | 1 | 114 | 53,3 | Зиёратгоҳ, қадамжо ва алломалар ҳақида маълумот берувчи 8 та нашр чоп этилди ва Республика зиёратгоҳларига тарқатилди |
| | Диний мазмундаги материаллар юзасидан диншунослик экспертизаси хулосаларини тайёрлаш | та | 7980 | 7980 | 3990 | 5478 | 1488 | 137 | 68,6 | 2026 йилнинг январь-июнь ойлари мобайнида давлат ва нодавлат ташкилотларининг 5478 та сўровномаларига мувофиқ экспертлик хулосалари ва жавоб хатлари тайёрланди (4845 тартибот идоралари, 465 та нашриётлар, 168 та юридик ва жисмоний шахслар). |
| | Ўзбекистон ва хорижий давлатлардаги диний-ижтимоий жараёнлар бўйича ахборот-таҳлилий маълумотнома тайёрлаш | та | 95 | 95 | 47 | 47 | 0 | 100 | 49,5 | O'zbekiston va xorijiy davlatlardagi diniy-ijtimoiy jarayonlar bo'yicha axborot-tahliliy ma'lumotnomalar tayyorlash yo'nalishida 47 ta ma'lumotnoma tayyorlash belgilangan bo'lib, ularning barchasi tayyorlandi. Natijada reja 100 foizga bajarildi. |
| | Ўзбекистонда ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлигини таъминлаш ва аҳолида терроризм ва экстремизмга қарши барқарор иммунитетни шакллантиришга қаратилган диний-маърифий тадбирларни ташкил этиш | дона | 66150 | 66150 | 33075 | 33210 | 135 | 100 | 50,2 | O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash hamda aholida terrorizm va ekstremizmga qarshi barqaror immunitetni shakllantirishga qaratilgan diniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish yo'nalishida 33 075 ta tadbir o'tkazish belgilangan bo'lib, amalda 33 210 ta tadbir tashkil etildi. Natijada belgilangan reja 100,41 foizga bajarildi. |
| | Интернет тармоғида дин омили билан боғлиқ мавзулардаги чиқишлар юзасидан таҳлилий маълумот тайёрлаш | та | 273 | 273 | 137 | 155 | 18 | 113 | 56,8 | 2026 йилнинг 1-ярими давомида Интернет тармоқларда дин омили билан боғлик контентлар сони ошгани сабабли таҳлилий ахборот таҳлилий дайджестлар тайёрланди. |
| | Диний соҳа ходимларининг интернет ва ижтимоий тармоқлар орқали долзарб мавзулардаги тарғибот чиқишларини ташкил этиш | та | 10500 | 10500 | 5250 | 6875 | 1625 | 131 | 65,5 | 2026 йилнинг 1-ярмида Рамазон ва Ҳаж-2026 билан мавсуми доирасида долзарб мазулардаги чиқишлари сони ошган. |
| | Интернет ва ижтимоий тармоқлар орқали радикал шахслар томонидан уюштириладиган чиқишларга қарши тезкор илмий асосланган аксилтарғибот (раддия) тадбирларини ташкил этиш | та | 6300 | 6300 | 3150 | 3579 | 429 | 114 | 56,8 | Интернет тармоқларида раддия билан боғлиқ тадбирлар жаарёнлар тизимли ташкил этилгани сабабли аксилтарғибот таблари сони ошган. |
| | Диний-маърифий соҳа ҳамда давлат ва жамоат ташкилотлари ходимларининг малакасини ошириш | нафар | 1680 | 1680 | 1100 | 3667 | 2567 | 333 | 218,3 | Дин ишлари бўйича қўмита ҳузуридаги Диний-маърифий соҳада малака ошириш ва қайта тайёрлаш институти ва унинг минтақавий филиалларида 2026 йил январь–июнь ойларида 3667 нафар диний-маърифий, давлат ҳамда жамоат ташкилотлари вакилларидан иборат тингловчиларнинг малакаси оширилди.<br>Исломшунослик йўналиши бўйича 144 соатлик ўқувларда 583 нафар тингловчи иштирок этди. Улардан 499 нафари имом-хатиб ва имом ноиблари, 15 нафари диний таълим муассасалари педагог кадрлари, 69 нафари вилоятлар, туман/шаҳар бош отинойилари. Институтда турли вазирлик, идора ва ташкилотлар билан ҳамкорликда шартнома асосида ташкил этилган 36 ва 72 соатлик ўқувларда жами 3 003 нафар тингловчилар учун малака ошириш ўқувлари ташкил қилинди.<br>("Қайтарув гуруҳи" аъзолари 134 нафар, олий таълим муассасаларининг Ёшлар масалалари ва маънавий-маърифий ишлар бўйича биринчи проректорлари 170 нафар, вазирлик, идора ва ташкилотларнинг раҳбар-ходимлари 141 нафар, Ички ишлар вазирлиги ходимлари (хотин-қизлар) 20 нафар, Дин ишлари бўйича қўмита котибият мудирлари 15 нафар, Хотин-қизлардан иборат тарғиботчилар ва отинойилар 2523 нафар). |
| | Диний ташкилотларни (масжид, диний таълим муассасалари) малакали кадрлар билан таъминлаш жараёнини мувофиқлаштириш | нафар | 315 | 315 | 158 | 186 | 28 | 118 | 59,0 | Республикада фаолият юритаётган масжидларнинг имом-хатиб ва имом ноиб лавозимларига Ўзбекистон мусулмонлари идораси томонидан тавсия этилган диний соҳа ходимлари номзодлари белгиланган тартибда ҳар томонлама ўрганилиб, мувофиқлаштириш ишлари амалга оширилди. |
| | Диний соҳа ходимлари иштирокида «Жаҳолатга қарши маърифат» ғояси остида жамият учун долзарб мавзулар ҳамда ижтимоий иллатларнинг олдини олишга йўналтирилган маърифий тадбирларни ташкил этиш | та | 57750 | 57750 | 29000 | 30482 | 1482 | 105 | 52,8 | Диний соҳа ходимлари томонидан аҳоли, айниқса ёшлар ўртасида диний бағрикенглик, миллий ва умуминсоний қадриятларни тарғиб қилиш, экстремизм ва терроризм ғояларига қарши мафкуравий иммунитетни мустаҳкамлаш, шунингдек, "Жаҳолатга қарши – маърифат" ғояси асосида кенг кўламли маънавий-маърифий тадбирлар ўтказилди. |
| | Диний ўқув юртлари қошидаги Қуръон ўқиш курсларида фуқаролар таълим олишини ташкил этиш | нафар | 14715 | 14715 | 7500 | 8000 | 500 | 107 | 54,4 | Қуръони карим ва тажвид ўқув курсларини 8 мингдан зиёд тингловчилар Ўзбекистон мусулмонлари идорасининг тегишли буйруғига асосан тамомлади. |
| | Ўзбекистон вакилларининг (исломшунос ва диншунос олимлар, тадқиқотчилар) мамлакатимиз ва хорижда ўтказиладиган диний соҳага оид халқаро тадбирларда иштирокини таъминлаш | нафар | 95 | 95 | 50 | 50 | 0 | 100 | 52,6 | 2026 йилнинг биринчи ярмида Ўзбекистон вакилларининг хорижий давлатларда ташкил этилган 50 та (10 та халқаро конференция, 15 та халқаро илмий семинар-тренинг, 5 та тақдимот, 5 та давра суҳбати, 15 та хорижий илмий ва хизмат сафарлари) диний-маърифий тадбирларда иштироки таъминланди. |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Хотин-қизларнинг турли маънавий таҳдид ва таъсирларга тушиб қолишини олдини олиш, уларда қатъий эътиқод ва қарашларни ўзида мужассам этган мафкуравий иммунитетни шакллантиришга йўналтирилган профилактик тадбирларни ташкил этиш | та | 2730 | 2730 | 1365 | 1380 | 15 | 101 | 50,5 | Республика "Тарғибот гуруҳи" аъзолари ва отинойилар томонидан хотин-қизлар ўртасида ижтимоий маънавий муҳитни соғломлаштириш, маънавий-маърифий тарбия, тарғибот-ташвиқот ишларини ташкил этиш ва мувофиқлаштириш бўйича жорий йилнинг ҳисобот даври давомида 7 867 та МФЙ ва ташкилотларда "Жаҳолатга қарши маърифат" ғояси асосида ўтказилган маънавий-маърифий ҳамда профилактик тадбирлар сони 14 975 маротаба ўтказилган бўлиб, ушбу тадбирларда қамраб олинган хотин-қизлар сони 254 518 нафарни ташкил этади; Маҳаллаларда 22 331 маротаба тўй, маърака-маросимларни тартибли ўтказиш ва исрофгарчиликнинг олдини олиш бўйича, 16 428 маротаба эрта никоҳ ва яқин қариндошлар ўртасидаги никоҳларни олдини олиш ҳақида давра суҳбатлари ўтказилди. "Қизлар тиббий кўриги муҳим масала", "Оила бахти", "Қиз бола тарбиясидаги муҳим жиҳатлар", "Вояга етмаган ва яқин қариндошлар ўрасидаги никоҳнинг салбий оқибатлари!", "Қариндошга қуда бўлманг" каби мавзуларда ҳудудлардаги маҳаллаларда ҳамда жойларда ташкил этилган "Оила ва хотин-қизлар масканлари" да 19 972 та ажрим ёқасига келиб қолган низоли оилалар билан маърифий тадбирлар ва қабуллар ўтказилди. Натижада 11 151 та оила яраштирилди. "Миллий либос-маънавият кўзгуси" мавзусида хотин-қизлар билан якка тартибда ўтказилган суҳбатлар сони 14 756 маротаба, шундан ижобий томонга ўзгарганлар ва кўриниши тартибга келтирилган хотин-қизлар сони 14 478 нафарни ташкил этади. |
| | Давлат ва нодавлат телерадиоканаллар, газета ва журналлар орқали телекўрсатув, радиоэшиттириш, матбуот, даврий нашрлар ҳамда интернет тармоғида диний-маърифий соҳага доир чиқишларни (брифинг, интервью, матбуот анжумани, мақола) амалга ошириш | дона | 21 | 21 | 11 | 11 | 0 | 100 | 52,4 | Ҳисобот даврида Қўмита томонидан 1 та брифинг, 3 та расмий баёнот, 2 та расмий хабарнома, 4 та эълон ва 1 та расмий муносабат (жами 11 та чиқиш) амалга оширилди. |
| | Диний-маърифий соҳада ўтказиладиган тадбирлар тўғрисидаги хабар, янгилик ва инфографикаларни сайт ва ижтимоий тармоқлар орқали эълон қилиб бориш | дона | 42 | 42 | 22 | 22 | 0 | 100 | 52,4 | Ҳисобот даврида (2-чоракда) диний-маърифий соҳада ўтказилган тадбирлар ва Рамазон ойи муносабати билан тайёрланган медиа маҳсулотлар кенг ёритилди. Хусусан, жадвалда акс эттирилган 10 та асосий медиа маҳсулот сифатида Қўмитанинг расмий сайти ва ижтимоий тармоқлардаги саҳифаларида 4 та муҳим инфо-хабар ва янгилик ҳамда мавзуга оид 6 та таҳлилий инфографика эълон қилиб борилди. |
| | Ноисломий диний ташкилотлар раҳбарлари иштирокида диний бағрикенглик руҳини кенг тарғиб қилишга қаратилган диний-маърифий тадбирларни ташкил этиш | та | 6 | 6 | 3 | 3 | 0 | 100 | 50,0 | "Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида"ги Қонун моддаларини тушунтириш бўйича Самарқанд шаҳрида Самарқанд, Жиззах, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятларида фаолият олиб бораётган ноисломий диний ташкилотлар раҳбарлари (15 май), Тошкент вилоятида фаолият олиб бораётган ноисломий диний ташкилотлар раҳбарлари (21 май) ҳамда Бухоро шаҳрида Навоий, Бухоро ва Хоразм вилоятларида фаолият олиб бораётган ноисломий диний ташкилотлар раҳбарлари (12 июнь) билан семинарлар ташкил этилди. |

**Молия-иқтисод бўлими бошлиғи** **Б.Журоев**